

## Po'lkan shoir (1874-1942)



## Po'lkan shoir (1874-1942)



Atoqli xalq baxshisi, o'zbek dostonchilik maktabi asoschilaridan biri Muhammad Jomurod o'g'li Po'lkan 1874 yilda hozirgi Samarqand viloyatining Xatirchi tumaniga qarashli Qatag'on qishlog'ida Mulla Jomurod xonadonida tavallud topgan.

Muhammadagi dostonchilikka mehr-muhabbat yuksakligini bilgan Qo'rg'on dostonchilik maktabi namoyondalaridan biri, mashhur Jassoq baxshi uni o'ziga shogirdlikka qabul qiladi va 70 dan ortiq dostonlarni o'rgatadi: «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlar, «Qironxon», «Orzigul», «Alpomish», «Yodgor», «Rustam» turkumi va b. U Jassoq baxshini 12-shogirdi hisoblanadi. Yosh Muhammadqul 25 yoshida xalq dostonchisi sifatida elga taniladi.

Oktyabr inqilobidan keyin, Po'lkan shoir ko'plab hamyurtlari kabi sovuq Sibir o'rmonlariga mardikorlikka safarbar qilinadi. Ma'lumotlarga qaraganda Muhammadqul "Po'lkan" taxallusini mardikorlikda yurgan paytida tanlagen. Bu jumla "polk" so'ziga "an" qo'shimchasi qo'shiluvidan hosil bo'lgan degan qarashlar bor. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra "Po'lkan" qadimgi mo'g'ilchada "ulug'", "katta" ma'nolarini anglatadi. Baxshi shoir shu sababli bu so'zni taxallus sifatida qabul qilgan bo'lishi mumkin.

Po'lkan shoirning repertuarlari mavzu va janr jihatidan turli-tuman bo'lib, ularda o'zbek xalqining o'tmishidagi hayoti, urf-odatlari, intilishi va orzu-umidlari ifodalangan. «Hasan batrak» (1927) dostonida o'zbek mehnatkashlarining yer va suv haqidagi orzu-tilaklari, bu yo'ldagi kurashi aks etgan. Po'lkan kuylagan an'anaviy dostonlar ham g'oyaviy va badiiy yuksakligi bilan ajralib turadi. Po'lkan ijodi o'zbek folklori

taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi.

Sovet Ittifoqi paytida Po'lkan shoir og'zidan o'ttizdan oshiq doston va termalar yozib olingan. Uning o'zi esa yangi joriy qilingan kirill imlosini yaxshi bilmagani uchun savodsiz deb hisoblangan. Aslida Po'lkan xatirchilik shayxdan Qur'oni Karimnini o'rgangan hamda islom dinini va falsafasini yaxshi bilgan ilmli kishi bo'lган.

Sobiq sho'ro zamonida Po'lkan shoirning sovet tuzumini madh etuvchi asarlari qayta-qayta chop etilgan, uning o'zi esa 1942 yilda Stalin qatag'oniga uchrab, Kattaqo'rg'on qamoqxonasiga qamalgandan so'ng, oradan ko'p vaqt o'tmay sil kasalligi tufayli vafot etgan.

2023-09-26 20:48:45